



KONSTITUTSIYA VA MA'NAVIYAT

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 26 yillik bayrami munosabati bilan "Konstitutsiya va ma'naviy rivojlanish" mavzuidagi ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi.



Unda O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining mamlakatimiz ijtimoiy, ma'naviy hayotidagi o'rni va ahamiyatini keng targ'ib etish, fuqarolar, ayniqsa, yoshlar

qalbida qonunlarga hurmat, Vatanga mehr va sadoqat tuyg'usini kuchaytirish, ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish hamda Konstitutsiya qabul qilinganining yigirma olti yillik sanasini keng nishonlash maqsadida tizimda amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot berildi.

Konferensiyada O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori Ibrohim Yuldashev, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi mutaxassislari O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolari, Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari, "O'zbekkino" milliy agentligi bosh direktori, talabalar va keng jamaotchilik vakillari ishtirok etishdi.



Konferensiya davomida faol va bilimli, tashabbuskor yoshlarga O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi tomonidan tayyorlangan kitoblar jamlanmasi tuhfa etildi.

Yakunda "Vatan" kinostudiyasi ijodkorlari tomonidan

tayyorlangan vatanparvarlik va oliyjanoblik tuyg'ularini madh etuvchi "Hayot" badiiy filmi namoyish etildi.



**0'zbekiston davlat
san'at va madaniyat
instituti Axborot
xizmati**